

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

R.A.Axrorova	
«Yosh» tushunchasining lingvistik talqini	317
G.M.Xoшимов	
Некоторые константы грамматики, касающиеся структурных особенностей гипотаксемы с адвербиальным компонентом темпоральности.....	322
N.Z.Abduraxmonova, O.O.Yulbarsov, G'.G'.Abduvaxobov	
Neologizm – kompyuter lingvistikasida tahlil birligi sifatida	329
M.Sharipova	
Ingliz tilida onomatopeik so'zlarning fonosemantik tahlili	334
A.O'.Abdullayev	
Ramzlarda shakl va mazmun munosabatlari.....	337
O'.A.Xudoynazarova	
Islom ta'limoti asosida shakllangan diniy barqaror birikmalar	344
F.R.Turg'unova	
Grammatik kompressiya orqali yangiliklar sarlavhalarini optimallashtirish. Strategiyalarni o'rganish va auditoriyani jalb qilish	349
M.A.Abduvaxobova	
Fransuz va o'zbek tillaridagi "Famille" – "Oila" semantik maydoniga doir	354
M.A.Kurbanov	
Muloqotda noverbal vositalar yordamida madaniyat, urf-odatlar va adab shakllarining ifoda etilishi.....	358
M.M.Kaxarova, Sh.B.Tolipova	
Nemis tilida og'zaki nutqni hamkorlik orqali rivojlantiruvchi mashq turlari va ulardan samarali foydalanish	364
M.Karimov	
"O'tkan kunlar" romanidagi o'xshatishning inglizcha tarjimalarda aks etish masalalari	368
X.P.Murtozoev	
Вижагиҳои савти ва услубии ҳодисаи афзоиш дар ашъори намояндагони сабки хурсонии адабиёти тоҷику форс.....	374
N.N.Odilova	
A comparative analysis of spellonyms in contemporary english and uzbek literature	384
M.B.Shamsiyeva	
Peyzaj matni murakkab sintaktik butunlik sifatida.....	388
I.T.Rustamov	
Ingliz va o'zbek folklor janr matnlarining semantik maydoni	392
K.Yu.Feruz	
Многоаспектная природа английских и русских провербиальных фразеовербализаторов концепта «head/голова/глава» и их лингвостилистические особенности	396
C.Э.Саидова	
Манзараи этники-диалекталии аҳолии сурхондарёи шарқӣ.....	401
G.A.Komilova	
Ingliz tilida siyosatchilar nutqida stilistik vositalarning nutq ta'sirchanligini oshirish vositasi sifatida qo'llanilishi	406
C.Ч.Маҷитова	
Антропонимҳо – ифодагари хислатҳои инсон дар ғазалиёти абдурахмони чомӣ.....	410
M.A.Matmusayeva	
Maktabgacha ta'limda o'yinlar- soha terminlari sifatida	419
Y.Sh.Shuxratova	
Sintaktik sathda o'xshatishlarning tabiatiga doir	423
H.H.Xoldorova	
Study of the concept of "Field" in modern linguistics	426
D.I.Mirzayeva	
Contextual-semantic analysis of fixed similes in english.....	429
K.T.Israilova	
Ijtimoiy tarmoqlar tili va medialingvistika tavsifi.....	432



MAKTABGACHA TA'LIMDA O'YINLAR- SOHA TERMINLARI SIFATIDA

ИГРЫ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ - КАК ОТРАСЛЕВЫЕ ТЕРМИНЫ

GAMES IN PRESCHOOL EDUCATION - AS INDUSTRY TERMS

Matmusayeva Muhayyo Azamovna 
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim sohasida bolalar o'yin nomlari-soha atamaları tahlil qilingan. Hozirgi o'zbek adabiy tili qurilishida terminologiya alohida o'rin va mavqega egaligi bilan ajralib turadi. Maktabgacha ta'lim soha terminlari fan tili sifatida maxsus tadqiqod etilmagan. Maktabgacha ta'lim nomshunosligi quyidagi tarzda, ya'ni umumiste'moldagi so'zlarning atamaga aylanishi, rus va g'arb tillaridan o'zlashgan neologizmlar yangi o'zlashma so'zlar hisobiga boyib borish xususiyatlari yoritilgan.

Аннотация

В данной статье анализируются детские игровые названия-отраслевые термины в области дошкольного образования. Особое место и положение в построении современного узбекского литературного языка занимает терминология. Дошкольное образование отраслевые термины как язык науки специально не исследовались. Освещаются особенности становления общеупотребительных слов в терминологию, обогащение неологизмов, заимствованных из русского и западного языков за счет новых заимствований слов.

Abstract

This article analyzes children's game names-industry terms in the field of preschool education. Terminology occupies a special place and position in the construction of the modern Uzbek literary language. Pre-school education industry terms as a language of science have not been specifically studied. The article highlights the peculiarities of the formation of commonly used words in terminology, the enrichment of neologisms borrowed from Russian and Western languages due to new loanwords.

Kalit so'zlar: o'yin nomlari, soha atamaları, o'zlashma so'zlar.

Ключевые слова: названия игр, отраслевые термины, заимствования.

Key words: game names, industry terms, borrowings.

KIRISH

Ma'lumki, teminologiya masalasi lug'aviy nominatsiya sohasida olib borilayotgan tadqiqotlarning markazidagi turadi. H.Dadaboyev ta'kidlaganiday, hozirgi o'zbek adabiy tili qurilishida terminologiya alohida o'rin va mavqega egaligi bilan ajralib turadi. Olim terminologiyaning til lug'at tarkibidagi roli haqida ikki dunyoqarash mavjudligini bildiradi. Chindan ham ayrim tadqiqotlarda, terminologiya adabiy til leksikasining mustaqil qatlami tarzida belgilansa, ikkinchi ta'limotga muvofiq u adabiy til so'z boyligi tarkibidan ajratilgan holda, "umumiste'mol darajasi cheklangan leksika "tarkibida o'rganiladi baholanadi va nutqning boshqa turlari (sheva, jargon, jonli so'zlashuv)ga tenglashtiriladi. V.P.Danilenkoning ta'kidlashicha, terminologiya deganda umumadabiy tilning mustaqil funksional turi, ya'ni an'anaviy fan tili (fan, ilm yoki texnika tili) nazarda tutiladi (Danilenko 1977;8). Fan tili umumadabiy tilning funksional sistemalaridan biri sifatida jonli so'zlashuv tili va badiiy adabiyot tili tushunchalari bilan bir qatorda turadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

H.Dadaboyev fan tili millatning umumadabiy tili asosida shakllanishi va rivojlanishi, ilm tili poydevorini umumadabiy tilning leksikasi, so'z yasalishi va grammatikasi tashkil qiladi deb e'tirof etadi va X.Xyuellning terminologiya muayyan fanga oid terminlar yoki texnika sohasida qo'llanadigan so'zlar yig'indisi degan qarashlariga tayanadi. O.Vinokurning fikricha, termin - har doim aniq va ravshan bo'lib, terminlar sistemasi tili ongli shakllantiriladi. Zero, termin o'z-o'zidan, stixiyali tarzda paydo bo'lmaydi, balki zarurligi, jamiyatda unga ehtiyoj mavjudligi bois yaratiladi. A.S.Gerdning

mulohazasiga ko'ra termin ilm-fan taraqqiyotining muayyan bosqichida mavjud tushunchalarning asosiy xususiyatlarini aniq va to'raligicha aks ettiruvchi maxsus terminologik ma'noga ega tabiiy va sun'iy til birligi, ya'ni so'z yoki so'z birikmasidir (Gerd 1991;1-4). O.S.Axmanovanning ta'kidlashicha, terminologiya qaysidir fan o'z taraqqiyotining oliy darajasiga erishgandagina yuzaga chiqadi, ya'ni termin muayyan tushuncha aniq ilmiy ifoda kasb etgandan so'ng tan olinadi. V.G.Gak terminning ta'rifini berish qatori, uning mohiyatini ochadi va terminning biror bir til so'z boyligidagi o'rnini belgilaydi. Terminologiya masalalari professor H.Dadaboyev tadqiqotlarida atroflicha o'rganilgan.


NATIJALAR VA MUHOKAMA

Maktabgacha ta'lim soha terminlari fan tili sifatida maxsus tadqiqot etilmagan. Maktabgacha ta'lim nomshunosligi quyidagi tarzda, ya'ni umumiste'moldagi so'zlarning atamaga aylanishi, rus va g'arb tillaridan o'zlashgan neologizmlar yangi o'zlashma so'zlar hisobiga boyib bormoqda. Terminlarning yasalishini quyidagi jadval asosida ko'rib chiqish mumkin:

Umumiste'moldagi so'zlardan birikmali atama hosil qilish	Boshqa sohalardan atamalar qabul qilish	Chet tilidan o'zlashgan atamalar
Yondashuv – bu pedagogik faoliyatning o'zaro bog'langan g'oyalari, tushunchalari va usullarining ma'lum bir xususiyatli jamlanmasidan foydalanishga undovchi pedagog faoliyatining metodologik yo'naltirilishidir.	Model (lotinchadan – o'lcham, namuna) – tabiatdagi yoki jamiyatdagi hodisa yohud jarayonlarni talqin qilish.	Kommunikativ kompetentsiya STEAM texnologiyasi Su-Djok terapiya o'yinlari xeppening sensor korobkalari Sesil Lupan o'yinlari Lego-konstruktor, kineziya Pakman, Super-Mario, Pokemon go.
Shaxsiy-yo'naltirilgan yondashuv – bu ta'lim jarayoni markaziga faoliyat subyekt sifatida ta'lim oluvchi qo'yiladigan yondashuvdir.	Pedagogik strategiya – bolalarga belgilangan maqsadlarga erishishda yordam ko'rsatish uchun pedagoglar foydalanadigan konkret metodlar to'plamini namoyon qiladi. Strategiya asosida bolaning qiziqishlari, uning kuchli va kuchsiz tomonlari, yoshga doir o'ziga xosliklar va shaxsiy sifatlarning hisobga olinishi, o'qitish shakli yotadi.	
Rivojlanish sohalari, Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'limi, "Ijtimoiy-hissiy rivojlanish" sohasi, «Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari» sohasi, "Bilish jarayonining rivojlanishi" sohasi, «Ijodiy rivojlanish» sohasi. Istiqboldagi rivojlanish hududi, Harakatlar ichki rejasi		

Maktabgacha ta'lim sohasi nomshunosligining asosiy komponenti o'yin ekanligi BMTning "Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasi"ning 31-moddasida ham belgilangan. Unda aytilishicha, bolalar yoshiga mos o'yinlarda ishtirok etish huquqiga ega.

Bolalar o'yinlari ikki yo'nalishda talqin etiladi.



5 yoshli bolalar jins tushunchasini ham farqlay boshlaydilar. Qiz bolalar o'zini oyna yoniga borib tomosha qila boshlaydilar. Ko'ylaklari ichidan chiroyliklarini ajratadilar. Dugonalari bilan "xola-xola", "mehmon-mehmon" o'yinlarini o'ynay boshlaydilar. Bu kabi vaziyat bolalar adabiyoti asarlarida jonli tasvirlangan:

Esonmisiz-omonmisiz,

Omonmisiz-esonmisiz?

Kulib turar yuzingiz,

Dilga yoqar so'zingiz.

Hay-hay, ko'zim tegmasin,

O'rtoqjonim, bormisiz?

Esonmisiz-omonmisiz,

Omonmisiz-esonmisiz?

Ko'zlarimiz yo'lingizda,

Sizsiz taom o'tmas bizdan,

Xush kelibsiz, xush ko'rdik biz,

O'rtoqjonim, bormisiz? (Odobnoma, 2-sinf. 45–46-b.).

Qizlar turli o'yinlarni o'ynash borasida o'z tengqurlari bo'lgan o'g'il bolalardan bir muncha oldinda bo'ladilar. Bu ildamlik bir necha yil davom etishi mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanish jarayonida uning motivatsion-ehtiyoj doirasida o'zgarishlar kechadi: maktabgacha yoshning dastlabki yillarida motivlar anglanmagan, affektiv bo'yoqqa ega bo'lgan, muayyan vaziyat bilan bog'liq xususiyatlarga ega bo'ladi. Maktabgacha yoshning oxirgi yillarida bola motivlari umumlashgan maqsadlar tarzida namoyon bo'ladi, motivlarni anglash boshlanadi, motivlar iyerarxiyasi shakllanadi. Bu davrda motivlarning yuzaga kelishi va rivojlanishini bola shaxsi rivojlanishi mezonlari sifatida qarash mumkin. Maktabgacha yoshning dastlabki yillarida motivlar iyerarxiyasining faqat asoslari yuzaga kelsa, yetti yoshga kelib uning shakllanishi boshlanadi. Syujetli-rolli o'yinning bola rivojlanishidagi muhim xususiyatlardan yana biri sifatida D.B.Elkonin uning – bilish egosentrizmiga ta'sirini o'rganadi va bartaraf etadi. O'yin jarayonida turli rollarni bajarayotgan bola turli nuqtayi nazarlarni o'zaro nisbatini aniqlaydi, boshqaning o'rniga o'zini qo'yib ko'radi, odob-axloq me'yorlarini o'zlashtiradi [1]. Bolada aynan maktabgacha bo'lgan yoshda insonlar o'rtasidagi asosiy qoidalarni o'zlashtira boshlab, ularning xatti-harakatlarini baholay boshlaganidan etnik bosqichlar va axloqiy xislatlarning dastlabki shakllari yuzaga keladi. Ma'lumki, o'g'il bolalar doimo avtomobillar va ularning ehtiyot qismlariga qiziqishadi, bu holat ularning o'yin o'ynash jarayonida yaqqol ko'rinadi. Aniqki, o'yin jarayonidagi o'zaro muloqot har bir bolaning

shaxsiy fazilatlarini hamda xarakter-xususiyatlarini yuzaga chiqaradi. O'yin faoliyatida bolaning perseptiv, ya'ni biror bir narsani ongli tarzda idrok etish natijasida yuzaga keluvchi lug'ati[2] qanchalik boy bo'lsa, bola o'yinning mohiyatini shuncha tez anglaydi, bu esa o'yinga rag'batini oshiradi, chunki u turli avtorusumlarning nomini bilish bilan birga, ularning ehtiyot qismlari nomlarini ham biladi, natijada o'zining lisoniy imkoniyatlaridan unumli foydalana oladi.

Bolalar folklori tarkibidagi bolalarning milliy o'yinlari lingvofolkloristika tarkibida o'rganiladi. Tadqiqotchil D.Yuldasheva lingvofolkloristika yo'nalishining egotsentrik va antropotsentrik xususiyatini hisobga olib, uni antropotsentrik paradigma tarkibida o'rganishni taklif qiladi [3]. Chunki tadqiqotchining fikriga ko'ra lingvofolkloristika yo'nalishi antropotsentrik paradigma tarkibida o'rganilganda quyidagi masalalar o'z yechimini topadi:

1. Folklor olamning milliy lisoniy manzarasini ifodalab, unda inson omilining o'rni, *lisoniy shaxs* aniqlanadi.

2. Folklor matnlarining pragmatik xususiyatlari, konnotatsiyalari oydinlashtiriladi.

3. Folklorning bilish jarayoniga bog'liqligi, tafakkurga oid, mental xususiyatlari tadqiq etiladi.

4. Xalq tilida folklorning vujudga kelish sabablari o'rganiladi.

XULOSA

Xulosa o'rinda ta'kidlash joizki, terminga xos belgilardan biri uning izohi va ta'rifiga oydinlik kiritish, terminning ma'naviy qurshovida mavjud qo'shimcha semalarni yuzaga chiqarish ilm-fan tilining rivojlanishida, o'zga soha oid terminologik tizimlar tarkibida yaqqol seziladi. Bolalar o'yin nomlari turlicha yasalish xususiyatlariga ega O'yin mazmunida maxsus kompetentsiyalarini egallashlari uchun ularga vaqt, makon, materiallar hamda ota-ona yoki vasiylarning, maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlaydigan malakali tarbiyachilarning qo'llab-quvvatlashi kerakligi belgilanadi. O'yin alohida bolalar uchun ta'limda muvozanatni saqlashga yordam beradi, chunki bola o'z ta'limini qo'llab-quvvatlash uchun zarur bo'lgan darajada va jadallik bilan olib boradi. U har bir bolaning rivojlanish ehtiyojlari va manfaatlarini g'ayrioddiy tarzda inobatga oladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Эльконин Д.Б. Детская психология. – Москва: Академия, 2007. – 384 с.

2. Касаевич В.Б., Смирнова А.В., Ягунова Е.В. Перцептивный словарь взрослых и детей. <http://www.iling.spb.ru/grammaticon/child/content.html>. – 31.05.2004. – С. 114-117.

3. Юлдашева Д. Ўзбек болаларига хос оғзаки ва ёзма матнларнинг антропоцентрик тадқиқи. Филол.фан.доктори (DSc) дисс. – Фарғона, 2022. –Б.52.